



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 38-43 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI TAHLILI



Xodjayeva Feruza Komilovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada mintaqada sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini tartibga solishning ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq etilgan. O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqaruvchi sanoatning texnologik tarkibi, hududlar kesimida sanoat konsentratsiyasi, ayrim sanoat mahsulotlari dinamikasi tahlil qilingan va tahlillar natijasida tegishli xulosalar shakllantirilgan. Shuningdek, mamlakatimiz hududlarida sanoat ishlab chiqarishni tartibga solishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqqa, sanoat ishlab chiqarish, tartibga solish, sanoat konsentratsiyasi, resurs, innovatsiya.

Аннотация: В статье исследованы научно-теоретические аспекты регулирования развития промышленного производства в регионе. Проанализированы объем промышленного производства в Узбекистане, технологическая структура обрабатывающей промышленности, концентрация промышленности в разрезе регионов, а также динамика отдельных видов промышленной продукции. По результатам проведенного анализа сформулированы соответствующие выводы. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на совершенствование регулирования промышленного производства в регионах страны.

Ключевые слова: регион, промышленное производство, регулирование, промышленная концентрация, ресурсы, инновации.

Abstract: The article examines the scientific and theoretical aspects of regulating the development of industrial production at the regional level. It analyzes the volume of industrial production in Uzbekistan, the technological structure of the manufacturing sector, the concentration of industry across regions, and the dynamics of selected industrial products. Based on the results of the analysis, relevant conclusions are formulated. In addition, scientific proposals and practical recommendations aimed at improving the regulation of industrial production in the country's regions are developed.

Keywords: region, industrial production, regulation, industrial concentration, resources, innovation.

Kirish

ozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish va uning hududiy jihatdan mutanosibligini ta'minlash masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish,

yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish jarayonlarida sanoat tarmoqlarining mintaqalar kesimida samarali tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 doirasida sanoatni modernizatsiya qilish, hududiy sanoat klasterlarini shakllantirish, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar mintaqalarda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga, aholi bandligini ta'minlash va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish darajasi o'rtasida sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni oqilona joylashtirish va hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish masalalarini yanada dolzarb qiladi. Shuningdek, sanoatni tartibga solish mexanizmlarining institutsional va iqtisodiy jihatdan yetarlicha samarali emasligi ayrim hollarda ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Jahon amaliyotida (Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlar misolida) sanoatni mintaqalar kesimida tartibga solishning samarali modellari shakllangan bo'lib, ularda klaster yondashuvi, innovatsion infratuzilmalar va davlat-qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Ushbu tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish va qo'llash, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida sanoatni hududiy rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, mintaqada sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini tartibga solishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, amalda qo'llanilayotgan mexanizmlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy sanoat rivojlanishi va uni tartibga solish masalalari iqtisodiy fanlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Avvalo, klaster nazariyasi asoschilari hisoblangan Michael E. Porter [1] sanoatni hududiy rivojlantirishda klasterlarning ahamiyatini ta'kidlab, ular raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim omil ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, hududiy konsentratsiya iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Paul Krugman [2] yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida sanoat ishlab chiqarishining hududiy joylashuvi transport xarajatlari va bozorga yaqinlik bilan bog'liqligini ko'rsatgan. U sanoatni markazlashtirish va aglomeratsiya effektlarini ilmiy asoslab bergan. Alfred Marshall [3] esa, sanoat rayonlari nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi mehnat bozori, bilim almashinuvi va ta'minot zanjiri samaradorligini oshirishini ta'kidlagan.

Douglass North [4] institutsional yondashuvda iqtisodiy rivojlanish davlat institutlari va tartibga solish mexanizmlariga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu sanoatni davlat tomonidan tartibga solish ahamiyatini asoslaydi. Joseph Stiglitz [5] bozor muvaffaqiyatsizliklari sharoitida davlat aralashuvi zarurligini ta'kidlab, sanoat siyosatining ahamiyatini asoslab bergan.

Dani Rodrik [6] sanoat siyosatini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim instrument sifatida baholab, davlatning tartibga solish roli yuqori ekanini ta'kidlaydi. Ha-Joon Chang [7] sanoatlashuv jarayonida davlatning faol ishtirokini qo'llab-quvvatlab, rivojlangan mamlakatlar ham bu yo'ldan o'tganini asoslaydi.

Erik Reinert [8] esa sanoat rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanini ko'rsatib, hududiy sanoat siyosatining ahamiyatini, Jane Jacobs [9] esa, shahar iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan sanoat diversifikatsiyasi hududiy barqarorlikni ta'minlashini ta'kidlaydi.

Edward Glaeser [10] aglomeratsiya iqtisodiyoti orqali sanoat rivojlanishini tushuntirib, shaharlar iqtisodiy o'sish markazi ekanini, Ricardo Hausmann [11] iqtisodiy murakkablik nazariyasida sanoat diversifikatsiyasi va eksport tarkibi rivojlanishga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Philippe Aghion [12] innovatsiya va raqobat sanoat o'sishining asosiy drayveri ekanini ta'kidlaydi. Xavier Sala-i-Martin [13] iqtisodiy o'sish omillari ichida sanoat va investitsiyalarning rolini tahlil qilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchilardan Q.Abduraxmonov [14] sanoat rivojlanishi mehnat bozori va inson kapitali bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. G.Maxmudova [15] esa, korporativ boshqaruv va sanoat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy va statistik tahlil, ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari sifatida ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi yillar kesimida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bormoqda (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi ¹

	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat ishlab chiqarish (trln. so'm)	367	451	573	690	810
O'sish sur'ati (%)	100.7	108.7	105.3	106.0	105.8

1-jadvaldan ko'rinadiki, so'nggi 5 yil davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi qariyb 2,2 barobarga oshgan. Bu esa sanoat tarmog'ida yuqori iqtisodiy faollik va investitsiyaviy jarayonlar kuchayganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2021 yilda eng yuqori o'sish (108.7%) kuzatilgan, bu pandemiyadan keyingi tiklanish effekti bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kuzatilayotgan o'sish bir qator omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, jumladan, sanoatni modernizatsiya qilish, davlat investitsiya dasturlari, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, xususi sektor ishtirokining ortishi.

¹ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Demak, O'zbekiston sanoatida sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu iqtisodiy islohotlar samaradorligini ko'rsatadi, o'sish sur'atlarining barqarorlashuvi iqtisodiyotda mutavozanli rivojlanish bosqichiga o'tilganini anglatadi.

2-jadval.

2025 yilda ishlab chiqaruvchi sanoatning texnologik tarkibi²

Texnologik guruh	Ulushi, %
Yuqori texnologiyali	1,1
O'rta-yuqori texnologiyali	19,5
O'rta-quyi texnologiyali	39,3
Quyi texnologiyali	40,1

2-jadval mavzudagi eng muhim xulosalardan birini beradi, jumladan, O'zbekiston sanoati hajm jihatdan o'smoqda, ammo texnologiya jihatidan hali asosan past va o'rta-quyi texnologik segmentlarda to'plangan. Yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi atigi 1,1 %. Bu esa sanoat siyosatida keyingi bosqich faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki texnologik yangilanish va innovatsion sanoatlashuv bo'lishi kerakligini anglatadi.

Mintaqaviy tartibga solish amaliyoti nuqtayi nazaridan bu shuni anglatadiki, birinchidan, barcha hududlarda birdek yuqori texnologiyali ishlab chiqarish yaratish real emas. Ikkinchidan, har bir hudud uchun "sanoat zinapoyasi"ni qurish lozim: avval qayta ishlash, keyin o'rta texnologiyali tarmoq, keyin yuqori texnologiyali maxsus zonalar. Uchinchidan, texnopark, injiniring markazi, universitet-sanoat kooperatsiyasi kabi instrumentlar hududiy siyosatning markaziga chiqishi kerak.

3-jadval.

Hududlar kesimida sanoat konsentratsiyasi³

Ko'rsatkich	Qiymat
2024 yil I chorakda eng katta ulush – Toshkent shahri	18,8 %
2024 yil I chorakda eng katta ulush – Navoiy viloyati	17,2 %
2024 yil I chorakda eng katta ulush – Toshkent viloyati	15,3 %
2025 yil yan-fevr. Respublika o'rtachasi, jon boshiga	3 287,2 ming.so'm
Navoiy viloyati	23 462,6 ming.so'm
Toshkent shahri	6 836,0 ming.so'm
Toshkent viloyati	5 812,4 ming.so'm
Andijon viloyati	3 358,4 ming.so'm

3-jadval ma'lumotlari O'zbekiston sanoatida hududiy konsentratsiya kuchli ekanini ko'rsatadi. 2024 yilning I choragidayoq Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyati umumiy sanoatda yetakchi bo'lgan. 2025 yil yanvar-fevral jon boshiga sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha Navoiy viloyati respublika o'rtachasidan bir necha barobar yuqori -

² Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

³ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

23,5 mln so'mga yaqin. Bu Navoiyda kon-metallurgiya, yirik sanoat korxonalari va eksportbop mahsulotlar ulushi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Bundan ikki xulosa chiqarish mumkin, birinchidan, sanoat o'sishi mamlakat bo'yicha mavjud, lekin uning hududiy samarasi notekis taqsimlangan. Ikkinchidan, davlatning tartibga solish siyosati oddiy statistik o'sishni emas, balki hududiy tenglashtirish mexanizmlarini ham ko'zlashi kerak. Masalan, sanoat infratuzilmasi, energiya ta'minoti, logistika, yer ajratish, kredit va soliq imtiyozlarini ayrim orqada qolayotgan hududlarga targetli yo'naltirish kerak bo'ladi.

4-jadval.

Ayrim sanoat mahsulotlari dinamikasi⁴

Mahsulot	Yillar		
	2023	2024	2025
Ko'mir, mln.t	6,5	8,2	8,9
Tabiiy gaz, mlrd.m ³	46,7	41,3	42,3
Neft, ming.t.	779,7	712,0	655,7
Portlandsement, mln.t	12,4	15,4	20,2
Engil avtomobillar, dona	-	429 139	457 883

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sanoatda bir vaqtning o'zida ikki xil jarayon ketayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, an'anaviy xomashyo tarmoqlarida ayrim pasayishlar mavjud, jumladan, neft 2023–2025 yillarda pasaygan, tabiiy gaz ham 2023 yilga nisbatan past darajada qolmoqda. Ikkinchi tomondan, qayta ishlash va qurilishga bog'liq tarmoqlarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda, xususan, sement ishlab chiqarish 12,4 mln tonnadan 20,2 mln tonnaga chiqqan, yengil avtomobillar ham o'sgan.

Bu tarkibiy siljishni mintaqaviy rivojlanish nuqtayi nazaridan ijobiy baholash mumkin. Chunki resurslarga tayangan sanoat hududni boy qiladi, lekin mehnatni ko'p jalb qilmaydi; qayta ishlash va mashinasozlik esa kengroq lokal kooperatsiya, xizmatlar zanjiri va bandlikni vujudga keltiradi. Demak, sanoatni tartibga solish amaliyotida faqat hajm emas, balki qaysi mahsulot turlari o'smoqda, degan savol hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

Birinchidan, O'zbekistonda sanoat barqaror o'smoqda, lekin bu o'sishning asosiy qismi ishlab chiqaruvchi sanoat hisobiga ta'minlanmoqda. Bu – ijobiy holat.

Ikkinchidan, sanoat hududiy jihatdan kuchli konsentratsiyalashgan: Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyati yetakchi. Bu tartibga solish siyosatini hududlar kesimida differensiallashtirishni talab qiladi.

Uchinchidan, yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi juda past. Demak, keyingi bosqichda sanoat siyosati "miqdoriy o'sish"dan "sifatli va texnologiyali o'sish"ga o'tishi lozim.

⁴ Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

To'rtinchidan, kichik biznes va hududiy kooperatsiya sanoat o'sishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli kichik sanoat zonalari, klasterlar va mahalliy lashuv dasturlari sanoatni tartibga solish amaliyotining markaziy vositasi bo'lib qolishi kerak.

Beshinchidan, ayrim xomashyo tarmoqlarida pasayish, qayta ishlash va sement-avtomobilsozlikda o'sish kuzatilmoqda. Bu esa sanoatda tarkibiy o'zgarish ketayaptimi, degan savolga ijobiy javob beradi, ammo bu jarayonni hududlar bo'yicha chuqurlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Michael E. Porter (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 76(6), -pp.77–90.
2. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. Cambridge, MA: MIT Press, pp. 1–142.
3. Marshall, A. (1890). *Principles of Economics*. London: Macmillan, pp. 225–290.
4. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 3–104.
5. Stiglitz, J.E. (2000). *Economics of the Public Sector* (3rd ed.). New York: W.W. Norton & Company. -pp. 45–112.
6. Rodrik, D. (2004). *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. Harvard University, CEPR Discussion Paper No. 4767. -pp. 1–57.
7. Chang, H.J. (2002). *Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective*. London: Anthem Press. -pp. 21–78.
8. Reinert, E.S. (2007). *How Rich Countries Got Rich and Why Poor Countries Stay Poor*. London: Constable & Robinson. -pp. 67–145.
9. Jacobs, J. (1969). *The Economy of Cities*. New York: Random House. -pp. 54–120.
10. Glaeser, E.L. (2011). *Triumph of the City*. New York: Penguin Press. -pp. 112–189.
11. Hausmann, R., Hidalgo, C.A. (2014). *The Atlas of Economic Complexity*. Cambridge: MIT Press. -pp. 25–88.
12. Aghion, P., Howitt, P. (2005). *Handbook of Economic Growth*. Amsterdam: Elsevier, Vol. 1A. -pp. 67–110.
13. Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth* (2nd ed.). Cambridge, MA: MIT Press. -pp. 102–210.
14. Abdurahmonov, Q.X. (2019). *Mehnat iqtisodiyoti*. -Toshkent: Fan nashriyoti, 56–134-бетлар.
15. Makhmudova, G. (2021). *Korporativ boshqaruv asoslari*. -Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 45–120-бетлар.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

